O'QUVCHILAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA KITOBLAR VA KITOBXONLIKNING O'RNI

Dosbekova Sayyora Umid qizi

Sayhunobod tumani 2- sonli kasb-hunar maktabi ARM hodimi

Annotatsiya: Insonlar baxtli yashashi uchun avvalo savodli ma'naviyatli va ilmli bo'lishi lozim. Bu esa undan qattiq mehnat va shijoat bilan bilim egallashni talab etadi. Ushbu maqolada o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirishda kitoblarning o'rni haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Kitob, badiiy kitob, dunyoqarash, shakllantirish, tadqiqot.

Kitob insoniyatning eng buyuk ixtirosi bo'lib, unda o'quvchi , kitobxon uchun yangi olam kashf etadi. Sargushat asarlar o'quvchining hayolot olamini boyitsa, tarixiy asarlar o'tmishga qiziqish, ajdodlarga ehtirom, faxrlanish tuyg'usini shakllantiradi. O'quvchilar qalbida kitobga yoshlikdan munosabat uyg'otish ota –onalar oldidagi , o'qituvchilar oldidagi eng mas'uliyatli ishdir. Shunday ekan, bolaga rasmli kitoblar olib berish, ertaklar o'qib, she'rlar yodlatish oiladagilar uchun kundalik ehtiyojga aylansin.

Professor V.F.Asmus o'zining «Kitobxonlik - mehnat va ijod» nomli maqolasida esa kitobxonlikka shunday ta'rif beradi: «Mutolaa vaqtida asar bir ko'zadan ikkinchi ko'zaga quyilgan suv kabi kitobxon miyasiga quyilib qolmay, balki ijodkor kitobxon tomonidan qayta idrok etiladi».

«Taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlarda,- deb yozadi H.To'xtaboyev,- kitobxonlik fan darajasiga ko'tarilgan. Kitobxonlik kitobni targ'ib qilishgina emas, balki kitob o'qishni, o'qiladigan kitobni tanlay olishni, mag'zini chaqishni, ya'ni kitob yordamida o'zini anglashni o'rgatish hamdir» Har bir xonadonda gazeta va jurnallar bo'lishi oila davrasida o'qilib, muhokama qilinishi bola shaxsida kitobga, badiiy asarga qiziqish tuyg'usini orttiradi. Badiiy asar o'quvchi shaxsida muomala madaniyat, odob- axloqni o'rgatadi.

Muhammad Yusuf she'rlarida Vatanni qanday sevish, anglash tuyg'usi, A. Qodiriy asarlari asosida milliy mentalitetni o'rganish tuyg'usini o'quvchilar qalbiga yetkaza olsak, biz o'quvchida Vatanga muhabbat, ona xalqimiz an'analariga ehtirom tuyg'usini shakllantira olgan bo'lamiz.

O'quvchilarga kitobdan ko'proq foydalanishga, turli adabiyotlarni o'qib, dunyoqarashini kengaytirib, tafakkurini rivojlantirishga undashimiz lozim. Kitobxonlikning o'quvchilar o'rtasida keng targ'ib qilinishi ularning nafaqat ma'naviyatli bo'lishiga , balki turli qo'shimcha bilimlarni ham o'zlashtirishga hizmat qiladi.

Dars jarayonida kitob o'quvchining eng yaqin do'sti, sirdoshi, yordamchisi bo'la olishiga erishish o'quvchi kitobxonligini yanada oshirishga hizmat qiladi. O'quvchi kitobni do'sti sifatida ko'ra boshlagan paytdan boshlab, uning ma'naviyati yuksala boradi. Zero, shoir aytganidek, "Kitobdan yaxshiroq do'st yo'qdir jahonda" Tarixiy voqealar haqida ko'proq kitoblar nashr ettirish, kitoblarni rasmlar bilan boyitish va ulardan dars jarayonida foydalanish o'quvchilar savodxonligini oshiradi va tafakkur doirasini kengaytiradi.

O'quvchilar kitobxonligini shakllantirishda ota- onalarning o'zi ham yuksak didga ega va ma'rifatli hamda bilimli bo'lishlari kerak. Ma'lumki, bola kitob o'qishni bilgan taqdirdagina, kitob uning ma'naviy hayotida muhim rol o'ynaydi. Kitob bolaning ma'naviy boyishi uchun uni

ma'naviy, aqliy, estetik o'sishga yo'llashi zarur. Buning uchun dastlabki turtki oilada bolaga o'qib berilgan birinchi kitob bo'lsa, ikkinchisi, bola otasi va onasining o'qishini eshitib, badiiy obrazlar go'zalligini tasavvur qilishi, kitob bilan ana shu birinchi va ikkinchi uchrashuv bolaning keyingi o'smirlik davrida uning ma'naviy hayotining barcha sohalari: mehnat, o'yin, musiqa, bolalar ijodi bilan bog'liq bo'lib, uni hayotining hamma tomonlarini qamrab olishi zarur. Chunki, o'smir hayotini ijodiy mehnat, ertaklar olami, fantaziyalar, o'yin va musiqasiz tasavvur etish qiyin. Ana shunday aql- zakovatni shakllantiruvchi, inson ma'naviy dunyosini boyituvchi vosita - bu kitob, kitobxonlikdir.

Quyida sizlarga bolaning muvaffaqiyati kitob va kitobxonlik bilan bog'liqligi haqidagi tadqiqotni keltirib o'tmoqchiman.

Kaliforniya universiteti tadqiqotchilari "Bolaning muvaffaqiyati ko'proq nimaga bog'liq" savoliga javob topishga qiziqdilar. Ular ushbu mavzu bo'yicha eng keng qamrovli ilmiy tadqiqotlarni ishlab chiqdilar. Tadqiqot 20 yil davom etdi. Ishtirokchi davlatlar soni 27 ta, ishtirokchilar soni esa 70000 dan ortiq. Natijalar 2010 yilda nashr etilgan.

Savolning javobi – uyda kitoblarning ko'pligi! Uyida kitobi ko'p bo'lgan oilalarning farzandlari ham ko'proq ta'lim oladi, ham ko'proq daromad topadi. Yaxshi kutubxona aql hamda pul olib keladi!

Gigant tadqiqotining eng hayajonli natijasi bu: ma'lum bo'lishicha, uydagi kitoblar soni qaysi diyorda tug'ilganingizdan, oilangizning ta'lim darajasidan, mamlakat faravonligidan, kasbingizdan va mamlakatdagi siyosiy tuzumdan ko'ra muhimroq ekan! Bu, albatta, juda yaxshi yangilik. Chunki kitob o'qish qo'limizdan keladigan va qimmatbaho bo'lmagan bir vositadir. Yaxshi kutubxona ayni paytda "imkoniyatlar tengligi" degan ma'noni ham anglatadi. Dunyodan armonsiz ketishni istagan har bir ota- ona farzandlari uchun yaxshi kutubxona qoldiradi.

Kitobsiz uy bilan 500dan ortiq kitobi bo'lgan uy o'rtasidagi farq ota- onaning o'qimagan, past ma'lumotli (maktab) yoki oliy ma'lumotli (15-16 yillik ta'lim) o'rtasidagi farq kabi katta. Ota- onasi oliy ma'lumotli bo'lganlar o'rtacha 3,2 yil ko'proq ta'lim oladilar. Agar siz oliy ma'lumotli bo'lmasangiz, tashvishlanishga hojat yo'q. Kamida 500ta kitob bo'lgan uyda bo'lish ham huddi shunday natija beradi. Faqat bunda kitoblarning soni emas, mazmuni muhim! Ushbu kitoblarni xarid qilgan ekansiz, siz foydali bilim kuchiga ishonadigan, ongli muvaffaqiyatga e'tiborli va farzandingizning muvaffaqiyati haqida qayg'uradigan insonsiz. Endi siz farzandingizga qoldirishingiz mumkin bo'lgan eng katta meros nima ekanini bilasiz. Bizning zamonda kuch bilimdan keladi, kitob esa bilimlar jamg'armasidir. Kitoblar teng imkoniyatlar vositasidir.

Farzandlaringizga qoldiradigan oxirgi moddiy meros sizning mulkingizdir. O'rtacha meros – bu sizning kutubxonangiz. Birinchi meros esa bu sizning so'z boyligingizdir.

Farzandlaringizga qoldiradigan birinchi meros – bu sizning so'z boyligingiz. Ular sizdan o'rganadigan narsalar – ularning hayotdagi boshlang'ich sarmoyasi. Hech o'ylab ko'rganmisiz: farzandingiz 3 yoshga to'lguncha, u bilan gaplashayotganda hammasi bo'lib nechta so'z qo'llardingiz? Go'dakligida unga murojaat qiladigan so'zlaringiz uning maktabdagi muvaffaqiyatga qanchalik ta'sir qilishini taxmin qila olasizmi?

Kanzas universitetidan Betti Xart va Todd Risli 1960- yillarda ta'lim sohasida keng ko'lamli tadqiqotlar olib borishdi. Ular 42 nafar oila ishtirok etgan tadqiqotni ishlab chiqishdi. Ular oilalar bilan tanishib, xonadonlardagi 7 oylikdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalarni kuzatib borishdi.

Natijalar qiziqarli:

- Bola uch yoshga to’lgunga qadar ishlatadigan so’zlarining 86 foizdan 98 foizgacha ota- onasining til havzasidan keladi.
- Bola nafaqat oilada qo’llaniladigan so’zlarni ishlatadi, balki foydalanadigan so’zlarining soni, suhbatining uzunligi va nutqi ham ota- onasiga juda o’xshaydi.

Uch yoshgacha shakllangan poydevor keyingi yillarda maktab muvaffaqiyatiga kuchli ta’sir qilishi isbotlandi. Til va o’qishni tushunish ko’nikmalarini o’lchaydigan imtixonlarda 3 yoshdagi muvaffaqiyat bilan 9 va 10 yoshdagi muvaffaqiyat o’rtasida sezilarli bog’liqlik mavjud.

Biz bu borada atrofimizdagi odamlargagina tobe emasmiz. Hayriyatki, dunyoda kitoblar bor! Kitoblar shuning uchun mavjud! Tadqiqotga ko’ra bolalarga kitob o’qib berish suhbatdan ko’ra ko’proq ularning so’z boyligini oshiradi.

Kitobxonlik - bu insonning o'z ustida ishlashi, faoliyatini ma'lum yo‘nalishga burib yuborish, ongida ma'lum tuyg’ularni, e'tiqod va dunyoqarashni hosil qilish, uni o'ylashga, hayotda qanday yashashga o'rgatish, fikr yuritish, yozuvchining insonparvarlik, axloqiy, estetik, badiiy, fuqarolik nuqtai nazarini bilib olish, uning ma'naviy o'gitlarini ilg'ab olish va bular asosida o'z hayot yo'li dasturini belgilash, yozuvchi bilan munozaraga kirishish, har bir o'qigan kitobidan yangilik topish, ma'naviy dunyosini boyitishdan iboratdir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, haqiqatan ham kitobxonlik insonni barkamollikka yo'llasa, uni o'qimaslik johillikka, ma'rifatsizlikka olib kelib, natijada ma'naviy bolada qashshoqlik yuzaga keladi. Maktabda, oilada muhim vazifa - kitobxonlikni inson hayotida zaruriyatga aylantirishdan iborat. Agar kitobxonlik zaruriyatga aylanmasa, oilada ham, maktabda ham unga mehr- muhabbat, e'tibor kuchaytirilmasa farzandni kitobga bo'lgan munosabatini o'zgartirish mumkin emas.

Kattalarning bolalarga o’rnak bo’lishi, kitobga muxabbat oiladan boshlanishi shart va zarurdir. Bola hayolot olamini boyitishda asarlar asosida tayyorlangan filmlar ham muhim rol o’ynaydi. Bola ko’z bilan ko’rib, hayolida asar qahramonlari bilan sirlasha olsa, o’sha o’quvchida kitobga muxabbat ortadi.

Safo Matchon: «Kitobxonlik - o'qilgan kitoblar soni bilan belgilanmaydi, balki u tushunib o'qish, ya'ni maqsadli o'qishdir. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, kitobxonning yozuvchi aytmoqchi bo'lgan fikrini nechog'li uqishini, ya'ni asar «tili»ga tushunishi kitobxonlik madaniyati, talanti darajasi ko'rsatadi. Shu tufayli adabiyotimiz talantli yozuvchilar bilan birga talantli kitobxonlarga ham hamisha ehtiyoj sezadi». Uning fikricha kitobxonlik talanti tug'ma emas, balki tarbiya vositasida kamol topadi.

Badiiy- estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish, joylarga, ta'lim muassasalariga vaqtida va maqbul narxlarda yetkazish, milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini tarjima qilish, yoshlarda bolalikdan boshlab kitob, jumladan, elektron kitob o'qish ko'nikmasini shakllantirish bugungi kundagi muhim ustuvor vazifamiz hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 dekabrdagi "2020-2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab- quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida" gi 781-sonli Qarori.

2. Mo’min Sekman Dr. Bahar Erish. “Bolalar muvaffaqiyatga qanday erishadilar” Toshkent. “Yangi asr avlodi” 2022.

3. A.Avloniy, Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O'qituvchi, 1992.

4. Yoshlar va kitobxonlik: an'anaviy va zamonaviy usullar.

5.https://old.xs.uz/index.php/homepage/madaniyat/item/9477-mutolaa- madaniyati-va-intellektual-salohiyat.

6. M.Inomova. Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi. T., 1999 y.

7. O'.A.Ashirova. " Basics of early education in the child's mental development". Europian Multidisciplinary Journal of Modern Science. 2022